Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



# Gido’nning kichiik qo’shini

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children www.M1914.org

©2013 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz
yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Yoshua vafot etgandan so'ng Isroilliklar Xudoga itoat etmay qo'yishdi.



Shuning uchun Xudo ularni er va uylarini Midiyonliklar yoqib

yuborishiga yo'l qo'yib berdi.


Isroilliklar g'orlarda yashashga majbur bo'lishdi.

Gido'n ismli Isroillikni bug'doy ekadigan yashirin joyi bor edi.





U g‘allani katta daraxt tagida, sharob qisgichda yashrincha

maydalardi.



Midiyonliklar buni bilishmasdi, lekin Xudo bilardi. Xudo Gido'nga xabar etkazish uchun farishtasini jo'natdi.

Xudo Gido'nga otasini butlarini buzib, o'rniga Haqiqiy Xudoga sajdagoh' qurishni buyurdi. Gido'n shunday qildi.



Shuningdek Xudo Gido’n Isroil qo’shiniga ham etakchilik qilishini hoxladi.  Ammo u qo’rqardi.



Xudo u bilan bo'lishini bilish uchun Gido'n Xudodan biror alomat ko'rsatishini so'radi. So'ng u qo'y terisini erga yoyib qo'ydi.





Gido'n ibodat qilib, shunday dedi: "Agar ertalab teri nam bo'lib, ...



... er quruq bo'lsa, Xudovand Sen men orqali Iroilliklarni qutqarishingga ishonaman!" Ertalab turib qarasa, teri nam, er esa quruq edi!

Ammo Gido'n hamon shubhalanardi. Endi u Xudodan erga namlik yuborib, teri quruq bo'lishini so'radi. Ertalab qarasa, shunday edi.



Gido'n 32000 qo'shin yig'di, lekin Xudo uni 300 taga qisqartirdi.



Xudo Isroilliklar “Biz o‘z kuchimiz bilan g‘olib bo‘ldik!” deyishini istamadi. Chunki yagona Qutqaruvchi bu Xudovand edi.



Gido'nda hamon qo'rquv bor edi. Albatta Xudo buni bilardi.



Shuning uchun Xudo Midiyonlik bir lashkar tushida bir burda non Midiyonliklarni chodirini ustiga tushib, ...



... uni buzganini Gido'n yashirincha eshitishiga yo'l qo'ydi.



Bu tushni eshitgan boshqa Midiyonlik lashkar qo‘rqib ketdi. U: “Bu Gido‘nni qilichi!”



-dedi. Bularning barisini eshitgan Gido'n, Xudo unga aniq g'alaba berishiga ishondi.



Gido'n kechasi hujum qilishni rejalashtirdi.



U lashkarlarining har birini qo'liga bittadan burg'u va bo'sh ko'za berdi.





Ko'zalarni ichida esa bittadan masha'la bor edi.

Gido'nni buyrug'iga binoan ular dushman qala'siga yaqinlashganda, bug'u chalib, ko'zani sindirishib, masha'lni ko'tarib, baqirishdi.



Bundan qo'rqib ketgan Midiyonliklar qochib ketishdi.



Bunday g'alabadan so'ng Isroilliklar Gido'n ularga etakchilik qilishini so'rashdi.



Ammo u: “Sizlarga men emas, Xudovand etakchilik qiladi!” -dedi.



U faqatgina Xudovand barchaning ustidan Hukmron ekanligini bilardi.



# Gido'nning kichiik qo'shini

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Hakamlar 6-9

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

# Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting: Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16